



Misr Turizmi: Iqtisodiy o'sish va muammolarni yengish yo'llari

Bekmurodova Feruza

(PhD), Ilmiy rahbar, Jahon iqtisodiyoti
va diplomatiya universiteti o'qituvchisi

Fazliddinova Sabohat

Baxtiyorova Kamola

Abdujambulova Nilufar

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
Universiteti Xalqaro iqtisodiyot va
menejment fakulteti 1-kurs talabalari

Annotatsiya: Turizm butun dunyoda eng tez rivojlanayotgan va davlatlar iqtisodiyotiga yaxshi tasir ko'rsatayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Misr tarixiy va madaniy merosi bilan boshqalardan ajralib turadigan davlat bo'lib, turizmni o'zining iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili deb ta'riflaydi. Bu davlat turizm sohasini yana ham kengaytirishga potentsiali yetsada, iqtisodiy barqarorligini taminlashda qiyinchiliklari bor. Bu maqola Misr turizmining iqtisodiyotga ta'sirini o'rganadi va asosiy muammolarini topib ularga yechim beradi. Misrda terrorizm tahdidlari va kuchsiz marketing strategiyasi bu soha rivojlanishiga yaxshigina muammo tug'dirmoqda.



Kalit so'zlar: Turizm, Misr, iqtisodiy ta'sir, muammolar, xavfsizlik, marketing strategiyalari, iqtisodiy rivojlanish, madaniy meros, infratuzilma, barqaror turizm.

Metodologiya: Ushbu maqolada keltirilgan hamma statistik ma'lumotlar Jahon banki, Jahon sayyohlik va turizm kengashi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti, Misr Turizm vazirligi hisobotlaridan olingan. Bundan tashqari, Trading economics va Statista ma'lumotlaridan ham foydalanilgan. Shu bilan birga tadqiqot natijalari kuzatuv, taqqoslash va ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali olingan.

Adabiyotlar tahlili: Hozirgi kunda har bir davlat o'zining turizm salohiyatini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. Shu jumladan, Misr turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida ko'rib chiqmoqda. Ushbu global ahamiyatga ega mavzu iqtisodchi va siyosatshunos olimlarning doimiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, Misr turizmi ham o'ziga xos tarixiy, madaniy va ekologik imkoniyatlari bilan dunyo e'tiborini tortmoqda. Tarek Muhammad, Sayed El-Houshy va Thomas Richter kabi olimlar Misr turizm salohiyatini turli nuqtai nazarlardan o'rganishgan. Tarek Muhammad tomonidan yozilgan "Misr mamlakati iqtisodiyotida turizm sohasining roli hamda rivojlanish tendensiyalari" ¹maqolasida Misrning iqtisodiy taraqqiyotida turizmning strategik o'rni, uning pandemiya sharoitidagi barqarorligi va yangi rivojlanish yo'nalishlari haqida tahliliy mulohazalar bayon etiladi. Sayed El-Houshy esa "Hospitality Students' Perceptions towards Working in Hotels: A Case Study of the Faculty

¹ **Ravshanov, T.** (2024). Misr mamlakati iqtisodiyotida turizm sohasining roli hamda rivojlanish tendensiyalari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(3), 55–63.
<https://www.researchgate.net/publication/379649151>



of Tourism and Hotels in Alexandria University”² nomli maqolasida turizm sohasidagi kadrlar masalasiga e’tibor qaratadi. U mehmonxona va xizmat ko’rsatish sohasida ishlashga bo’lgan talabalar munosabatini tahlil qilib, bu omil turizm rivojiga qanday ta’sir qilishini ko’rsatib beradi. Thomas Richter va Christian Steiner esa “Politics, Economics and Tourism Development in Egypt” maqolasida Misrdagi siyosiy va iqtisodiy tizim bilan turizm o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni chuqur tahlil qilgan. Ular Misrning “neo-patrimonial rentier” modeli doirasida turizm sohasida qanday muammolar va imkoniyatlar mavjudligini o’rganishgan. Barcha maqolalardan olgan xulosalar va qo’shimcha ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ushbu maqolada Misr turizmining SWOT tahlili, uning muommolari va unga yechimlar, va taqqoslovchi tahlillar olib borildi.

Kirish: Insonlarning yashashga bo’lgan ehtiyoji ortgan sari turizm bugungi zamonaviy dunyoda iqtisodiyotning eng muhim ajralmas qismiga aylangani barchaga kunday ravshan. Har bir davlat o’z turizm bilan boy bo’lgani kabi Misr davlati ham bu borada ortda qolgan emas. Bu respublika eng go’zal turistik joylardan biri sifatida nom qozongan bo’lib, bir qancha tarixiy va betakror, tashrif buyursa arziydigan joylarga ega. Bunday xususiyati bilan Misr anchagina daromadlarni o’z iqtisodiyotiga olib kirayotgani hech kimga sir emas. Yana bir e’tibor qaratishimiz lozim bo’lgan narsa bu Misr turizmining Swot tahlil usuli hisoblanadi. Swot tahlilida Misr turizmi o’zining bir nechta kuchli va kuchsiz tomonlarini ko’rsatib bergan. Shu bilan birgalikda, Misr o’zining bir qancha imkoniyatlarini, jumladan tibbiy turizm, mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish, xalqaro ziyoratchilarni diqqatini tortish, yangi bozorlarga chiqish kabi keng ko’lamli islohotlarini olib bormoqda.

² **El-Houshy, S.** (2018). Hospitality students' perceptions towards working in hotels: A case study of the faculty of tourism and hotels in Alexandria University. *arXiv preprint arXiv:1807.09660*.
<https://arxiv.org/abs/1807.09660>



Ushbu maqolada Misrda turizm qay tarzda muhim ahamiyatga egaligi, ular o'rtasidagi farqli hamda o'xshash bo'lgan tomonlar, uchrab turgan muammoli vaziyatlar tahlil qilinadi.

Tahlil va natija

Misr turizimi: Misr iqtisodiyotining ajralmas qisimlaridan biri bu uning turizm sohasi hisoblanadi. Misr dunyodagi eng chiroyli turistik zona bo'lib, o'zining go'zal va betakror qadimiy manzilgohlari, so'lim tabiat manzaralari bilan ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda va iqtisodiyotga sezilarli darajada foyda keltirmoqda. Misol uchun, Misr pramidalari, Sfenks, Luksor va Asvan kabi ibodatxonalari butunjahonda tarix ixlosmandlarini o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, Misr suv sportini sevuvchilar uchun Qizil dengizi va O'rta yer dengizi bo'ylab ajoyib sohil plyajlarini taklif qiladi. Shu sababdan, turizm mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YAIM) muhim rol o'ynaydi.




Table 1: 2012-2025-yillarda Misrda Turizimning YAIM ga qo'shgan hissasi (foizlarda)³

Ushbu grafik Misrda 2013-2024-yillar oralig'ida sayohat va turizm sohasining yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasini foizlarda tasvirlaydi. Grafikdan ko'rib turishimiz

³ Statista. (2024). Contribution of travel and tourism to GDP in Egypt. Retrieved March 25, 2025, from <https://www.statista.com/statistics/1317338/contribution-of-travel-and-tourism-to-gdp-in-egypt/>



mumkuni, 2012-yilda eng yuqori ko'rstgich qayd etilgan ya'ni 10,1 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu yilda Misr 2011-yilda sodir bo'lgan Arab inqilobi tasiridan chiqib, turizim sohasini tiklab olganligini ko'rishimiz mumkun. Grafik 2013-2019-yillar oralig'ida bu ko'rsatkichlar qisman barqaror va qisman o'sganligini ko'rsatmoqda. Eng quyi nuqtasiga esa 2020-yilda erishgan (4.3%). Covid-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan muommolar buning asosiy sabablaridan biri bo'lgan. Bu holatlar 2021-yilda ham o'z ta'siriga ega bo'lgan, ya'ni bu yilda ham sayohat qatnovlari oqimi pandimiya holatidan oldingi statistikalariga solishtirganda keskin pasayganligini ko'rishimiz mumkun. Biroq Covid-19 pandemiyasidan keyin Misr turizimi ijobiy tomonga siljiy boshlagan va 2023-yilga kelib u yalpi ichki mahsulotning 8% ini tashkil qilgan.

Sayyohlar tashrif buyurish sabablariga keladigan bo'sak, Misrga bo'lgan tashriflarning eng katta qismini dam olish maqsadida kelgan sayyohlar qatnovi tashkil qilmoqda. Yuqoridagi grafikdagi ma'lumotlar ham bunga asos bo'la oladi. Ya'ni bu grafik Misrdagi 2019-2023-yillarda sayyohlik harajatlarini ko'rsatadi.






Table 3: 2019-2023-yillar davomida Misrga bo'lgan tashriflar sababi⁴

Grafikdan yaqqol ko'rishimiz mumkunki, barcha yil davomida harajatlarning eng ko'p qismi dam olish turizimi uchun sarflangan. Ya'ni ushbu harajatlar umumiy harajatlarning 89%ini tashkil qilgan. Bunga sabab hukumat asosiy e'tiborni Sharm-al-Shayx, Hurghada kabi dam olish maskanlarini rivojlantirish uchun sarflagan. Chunki sayyohlar tomonida dam olishga bo'lgan talab yuqori bo'lgan. Biznes turizmiga sarflanadigan harajatlarga keladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich har yili umumiy harajatlarning o'rtacha 10-11% miqdoriga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa Covid-19 pandemiyasidan keyin bu ko'rsatkich yanada pasaygan. Ko'plab biznes tadbirlarining onlayn formatga o'tkazilishi, kompaniyalar an'anaviy uchrashuvlardan ko'ra onlayn uchrashuvlarga ko'proq e'tibor berishi, Misrda xalqaro darajadagi konferinsiyalar soni chegaralanganligi va ayrim biznes sayyohlar Misrni barqaror bo'lmagan hudud sifatida ko'rishi buning asosiy sabablari hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, sayyohlarning Misrga bo'lgan sayohatlarining asosiy sababi bu dam olish, Misr madaniyati bilan tanishish va uning go'zal manzaralaridan bahramand bo'lishdir.

Muommolar va yechimlar

Davlat	Muammo	Yechim
Misr	1.Xavfsizlik bilan bog'liq muommolar 2. Marketing	1. Xavfsizlik masalalarni kuchaytirish, Jahon sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlik qilish 2.

⁴ Road Genius. (2024). Tourism statistics in Egypt. Retrieved March 25, 2025, from <https://roadgenius.com/statistics/tourism/egypt/>



	zaifligi	Malakali xodimlar jalb qilish, kinofilimlar orqali Misr go'zalliklarini ko'rsatish
--	----------	--

1. Xavfsizlik masalalri bilan bog'liq muommolar

Misrda xavfsizlik masalalari bilan bog'liq muommolar turizimga katta xavf soladiga omillardan biri hisoblanadi. Chunki sayyohlar naznida Misr ular uchun xavfli hudud timsolida ko'rinmoqda. Bunga asosiy sabab, terroristik voqealarining amalga oshirilishidir. Misol uchun, 2005- yilda Misrning Qohira shahrida bo'lib o'tgan portlash⁵ nafaqat mahalliy aholiga, balki, xorijiy sayyohlarga ham zarar yetkazgan. Shuningdek, Sinay yarim oroli ham Misrdagi terroristik oqim markazlaridan biri hisoblanadi. Bunga asosiy sabab uning Misr, Isroil va G'azo sektorlariga yaqin joylashganligi va strategik ahamiyatga ega ekanligidir. Ayniqsa 2011-yildan keyin Sinay yarim oroli terrorchi guruhlarining faoliyat markaziga aylangan. Ushbu hodisalar Misr turizimiga katta zarar yetkazadi, chunki har bir davlat o'zining axborot tizimlarida barcha fuqorolarini xavfsizlik masalalari bilan ogohlantirgan. Natijada, Misrga bo'lgan turistlar oqimi keskin kamaygan.

2017-yil 24-noyabr kuni Misrdagi Al-Rawda qishlog'ida joylashgan Al-Rawda masjidiga terroristlar tomonidan hujum uyushtirilgan va natijada 300dan ortiq odam halok bo'lgan⁶.

Bunday muommolarni hal qilish uchun birinchi navbatda hukumat tomonidan turistlar uchun xavfsizlik masalalariga katta e'tibor qaratilishi va xavfsizlik choralari yanada kuchaytirilishi kerak. Ikkinchidan, hukumat Misrni yanada jozibali va xavfsiz joy sifatida

⁵ The Guardian. (2005, April 7). Three dead in Cairo bombing. Retrieved March 25, 2025, from <https://www.theguardian.com/world/2005/apr/07/egypt.oil>

⁶ Kholaf, D. (2017, November 25). Death toll rises to more than 305 in mosque attack in Egypt's Sinai Peninsula. The Wall Street Journal. Retrieved March 25, 2025, from <https://www.wsj.com/articles/death-toll-rises-to-more-than-305-in-mosque-attack-in-egypts-sinai-peninsula-1511620240>



namoyish qilish uchun jahon sayyohlik kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozim.

2. Marketing zaifligi

Marketing sohasining zaifligi Misr turizimidagi yana bir muommolardan biri hisoblanadi. Aytib o'tish joizki, Misr turizimi an'anaviy marketing taktikalariga tayanib qolgan. Ya'ni ularda innavatsion reklama strategiyalarining yetishmochiligi mavjud. Holbuki, sayyohlar o'zlari sayohat qilmoqchi bo'lgan manzillariga borishdan avval u haqida ma'lumot o'qishdan ko'ra, videoroliklar tomosha qilishni avzal ko'rishadi. Misol uchun, o'sha davlatning urf odatlari, go'zal shaharlari, e'tiborga sazovor maskanlari haqidagi vidiolarni kuzatishadi. Ushbu turdagi vidioroliklar sayyohlarni ilhomlantiradi va ular sayohat uchun bron qilishadi. Ikkinchi muommo, Misr turizimi tur-operator va sayohat agentliklariga tayanib qolgan va natijada sayohat haqidagi tafsilotlar ommaga to'g'ridan to'g'ri yetib bormaydi.

Yuqoridagi muommolarni hal qilish uchun Misr marketing sohasini yanada rivojlantirishi kerak va ushbu sohaga yanada malakali xodimlar jalb qilinishi kerak. Sayyohlar e'tiborini tortish maqsadida sifatli va qiziqarli vidioroliklar yaratishi lozim. Bundan tashqari Misr kinofilmlari orqali ham ushbu davlatni yanada jozibador qilib ko'rsatish mumkun.

Misr SWOT tahlili

Bizga ma'lumki Misr turizm bo'yicha davr o'zgarishiga qarasdan dunyo bo'ylab yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Quyidagi SWOT tahlili yani kuchli, zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlar Misr turizm holatini tushunishga yordam beradi

Strengths	Weaknesses
-----------	------------



• Dunyoga yetakchi tarixiy meroslari • Mintaqadagi arzon sayohlik maskani • Maxsus sayyohlik xizmati • Geografik joylashuvi	• Xavfsizlik muqmolari • Atrof-muhit muhofazasi masalalari • Reklama va marketingni sustligi • Sayyohlar uchun yetarlicha qo'lammar yo'qligi
Opportunities • Tibbiy turizm • Mahalliy tadbirkorlarni jakb qilish • Xalqaro ziyoratchilarni jalb qilish • Yangi bozorlarga chiqish	Threats • Mintaqaviy raqobat • Iqlim o'zgarishi • Tarixiy yodgorliklarning yemirilishi • Siyosiy beqarorlik

Avvalo jadvalda birinchi bo'lib ko'rib chiqadigon qismimiz Misr turizmining kuchli tomonlari:

1. Dunyoga yetakchi tarixiy meroslari - Misr insoniyat tarixidagi eng qadimiy tsivilizatsiyalardan biri bo'lib, Misr Giza piramidalari, Luksor, Abu Simbel, Qohira muzeyi va boshqa ko'plab qadimiy yodgorliklarga ega. Bu joylar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki har yili millionlab sayyohlarni jalb qiladi.⁷

2. Maxsus sayyohlik xizmati - Misrda xalqaro darajadagi besh yulduzli mehmonxonalar, dam olish maskanlari va Nil kruizlari mavjud. Bundan tashqari VIP sayohatlar, xususiy gidlar va eksklyuziv tarixiy joylarga kirish imkoniyati mavjud. Bu esa turistik tajribani yaxshilaydi.

⁷ https://www.academia.edu/42001270/Tourism_in_Egypt_PESTEL_SWOT_?utm_source=chatgpt.com



3. Geografik joylashuvi - Misr Afrika, Yaqin Sharq va Yevropa o'rtasida joylashgan bo'lib, bu uning sayyohlik industriyasini rivojlantirish uchun qulay omildir.⁸

Endi esa Misr turizmining zaif tomonlari:

1. Xavfsizlik muammolari - Ayrim sayyohlar firibgarlik, tajovuzkor sotuvchilar va xizmat ko'rsatishdagi sifatsizlik sababli salbiy fikrga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari so'nggi yillarda siyosiy beqarorlik va terrorizm tahdidlari sababli ba'zi sayyohlar Misrga sayohat qilishga ehtiyot bo'lishmoqda

2. Reklama va marketingning sustligi - Misrning hashamatli va sarguzasht turizmi yetarlicha targ'ib qilinmaydi. Yani bu nimani anglatadi ko'plab sayyohlik maskanlari xalqaro bozor uchun yetarli darajada reklama qilinmagan.

3. Sayyohlar uchun yetarlicha qo'llanmalar yo'qligi - Har bir sayoh tashrif buyurgan mamlakatga borgandan keyin u yerni o'rganish masalasida albatta sayohatchilar uchun alohida tayyorlangan qo'llanmalarga muhtoj va Misrda aynan shu soha rivojlanmagan. Ko'pgina tarixiy joylar haqida ma'lumot beruvchi yetarli darajada interaktiv va ko'rgazmali qo'llanmalar yo'q, bu esa sayyohlarga qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Endi esa Misr turizmining imkoniyatlari haqida so'z boradi.

1. Tibbiy turizm – Misrda tibbiy turizmni rivojlantirish uchun mineral suvlar, dorivor loyli vannalar va shifobaxsh buloqlar mavjud. Bu sohani rivojlantirish orqali yangi turistlarni jalb qilish mumkin.
2. Mahalliy tadbirkorlarni jalb qilish – Mahalliy biznes egalari va tadbirkorlarni turizm sohasiga jalb qilish orqali yangi xizmatlar va qulayliklarni yaratish mumkin.

⁸ <https://pestleanalysis.com/egypt-swot-analysis/>



3. Yangi bozorlarga chiqish – Misr o‘z turistik xizmatlarini Osiyo, Lotin Amerikasi va boshqa mintaqalarga targ‘ib qilish orqali yangi sayyohlarni jalb qilishi mumkun va bu uning asosiy imkoniyatlaridan biri hisoblanadi

Yakunida biz Misr turizmiga tahdidlarni ko‘rib chiqamiz.

1. Mintaqaviy raqobat – Misr turizmi Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi boshqa davlatlar, masalan, Turkiya va BAA bilan raqobatga duch kelmoqda. Ular innovatsion turizm strategiyalari bilan Misrdan ko‘proq sayyohlarni jalb qilishi mumkin⁹.
2. Tarixiy yodgorliklarning yemirilishi – Ba’zi tarixiy obidalar vaqt o‘tishi bilan yemirilib bormoqda. Agar ular yetarlicha restavratsiya qilinmasa, turizmga katta zarba bo‘lishi mumkin. Bizga ma’lumki har bir tarixiy yodgorlik vaqt o‘tishi bilan yemiriladi va bu hozirda misr piramidalariga xavf solayotgan omillardan biri. Agar Misr xokimyatidagilar bunga ahamiyat berishmasa bu Misr turizmga katta xavf soladi
3. Siyosiy beqarorlik – Hukumat o‘zgarishlari, namoyishlar va boshqa siyosiy omillar sayyohlarni qo‘rqitib, turistik oqimni kamaytirishi mumkin.

Xulosa. Misr turizimi bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan strategik tarmoqlardan biridir. Bu davlatning boy tarixiy-madaniy merosi, geografik joylashuvi va turistik salohiyati ularni global turizm bozorida yetakchi o‘rinlarga olib chiqqan. Biroq, maqola davomida ko‘rinib turganidek, turizm sohasi faqat kuchli jihatlardan iborat emas, balki xavfsizlik, marketing, transport tizimi, narxlar barqarorligi va xizmat sifati kabi muammolar ham mavjud. Ayniqsa, Misrda xavfsizlik va marketing strategiyalarining sustligi turistik oqimga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Tahlillar va SWOT usuli orqali aniqlanganidek, har ikki mamlakat tibbiy turizm, yangi bozorlarga chiqish va xizmatlar sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishi mumkin. Eng muhimi, davlat

⁹ <https://store.fitchsolutions.com/tourism/egypt-tourism-report>



va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, zamonaviy texnologiyalar va xavfsizlik choralarining kuchaytirilishi orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Xulosa qilib aytganda, Misr turizmi kelajakda yanada barqaror va samarali rivojlanishi uchun aniq strategiyalar va zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.S. Department of State. (2025). Egypt travel advisory. Retrieved March 25, 2025 from <https://travel.state.gov/content/travel/en/traveladvisories/traveladvisories/egypt-travel-advisory.html>
2. Al Jazeera English. (2024). Why is Egypt's tourism industry in decline? [YouTube Video]. Retrieved March 25, 2025, from <https://youtu.be/i1QIu4N8oA0>
3. La Demeure du Parc. (2025). Le tourism in Egypt: A resilient sector facing complex challenges. Retrieved March 25, 2025, from <https://www.lademeureduparc.fr/en/67255-le-tourism-in-egypt-a-resilient-sector-facing-complex-challenges/>
4. Springer. (2019). Tourism and economic indicators: A complex analysis. Quality & Quantity, 53(6), 1-25. Retrieved March 25, 2025, from <https://link.springer.com/article/10.1007/s11135-019-00902-9>
5. Akar, M. (2022). An evaluation on the problems and solutions of Cappadocia regional tourism. ResearchGate. Retrieved March 25, 2025, from https://www.researchgate.net/publication/360192293_An_Evaluation_on_the_Problems_and_Solutions_of_Cappadocia_Regional_Tourism
6. Hürriyet Daily News. (2025). Turkish-tourism latest news, top stories - All news & analysis about Turkish-tourism. Retrieved March 25, 2025, from <https://www.hurriyetdailynews.com/index/turkish-tourism>